



TARBIYALANUVCHILAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISHDA FOYDALANILADIGAN MILLIY O'YINLAR

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

O'rinboyeva Asila Diyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti,

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-bosqich talabasi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25- mart 2023 yil

Ma'qullandi: 28-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 31-mart 2023 yil

KEY WORDS

*dunyoqarash, milliy qadriyatlar,
sport turlari, qoida, jamoa,
ijtimoiy faollik;*

ABSTRACT

O'yin bolalarning ijtimoiy rivojlanishining ko'p jihatlarini yaxshilaydi. Agar bolalar ta'limining o'quv dasturi qiziqarli o'rganish va o'yin faoliyatiga asoslangan bo'lsa, bolaning ijtimoiy rivojlanishini qurish jarayoni yanada samarali bo'ladi.

Bizga ma'lumki, maktabgacha yosh davri shaxs psixik taraqqiyotining negizini tashkil qiladi. Negaki, inson hayotidagi muhim psixik jarayonlar, psixologik holatlar va individual psixologik xususiyatlarning elementlari aynan shu davrda shakllana boshlaydi. Maktabgacha yosh davridan boshlab, bola tashqi olamni anglay boshlaydi natijada "Men o'zim" fenomeni tarkib topadi. Shunga bog'liq ravishda mustaqillikka intilish tuyg'usi zamirida bolada o'z xulq-atvori, xatti-harakati, "yurish-turishi"ning individual-psixologik ko'rinishlari shakllanadi. Pedagog-psixologlarning izlanishlariga ko'ra, bola shaxsini individual-psixologik xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish tarbiyachilar, ota-onalar uchun bola xulqida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy illatlarning oldini olishga olib keladi. Jamiyat oldidagi muhim vazifalardan biri barkamol shaxsni tarbiyalashga imkoniyatini yaratib beradi.

Hozirgi kunda bolada milliy ruhda tarbiyalash masalasi ko'ndalang qo'yilgan va davlatimizda amal qilinayotgan "Ilk qadam" dasturining eng muhimi maqsadi ham bolani ijtimoiy munosabatlarga kirish jarayoni uchun zarur bo'lgan shaxsiy va milliy xususiyatlar, dunyoqarash va odob-axloq bilan ta'minlashdir. Bizga ma'lumki, ijtimoiy faollik uchun muhim sanalgan shaxsiy va milliy xususiyatlar milliy qadriyatlar, an'analar negizida shakllanadi.

Tashkiliy jihatdan o'yin quyidagi turlarga bo'linadi.¹⁸

- Ov o'yinlari (Jambil, Oshiq, Lappak, Chirgizak va boshq.);
- Cho'pon o'yinlari (To'ptosh, Ko'tarma tosh, Echkio'yin, Cho'pon va
- Qo'l san'ati o'yinlari (Dandarok, Charhpalak, Beshbarmoq, Paqilloq, Lanka, Chig'iriq, Uzuk soldi, Varrak, Sartarosh, Ko'z bog'lar va boshq.);
- Qishloq xo'jaligi o'yinlari (Palahmon, Jon burgam, Somonsepedi, Chanoq o'yin, Shaftoli shakar, Qo'riqchi va boshq.);
- Imitativ o'yinlar (Xola-xola, Topaloq, Kim oladi-yo, Ayiq o'yin, Xo'roz urishtirish, Oqsoch turna, Bosari, Asalari, G'ozlar va boshq.);
- Motorli o'yinlar (Chunka shuvoq, Chim otish, Kim tez, Xurkach, Tufaloq, Mushuk-sichqon, Yogoch oyoq, Durra solish, Halinchak va boshq.);

- So'z o'yinlari (Kim chaqqon, Botmon-botmon, Juftmi-toq, Oqquyonim alomat, Oqterakmi-ko'kterak, Pirr etdi va boshq.);
- Uchrashuv o'yinlari (Gap-gashtak, Podsho-vazir, Podsho-o'g'ri, Arshia'lo va boshq.);
- Xalq milliy kurashi va unga aloqador o'yinlar (Milliy kurash, Polvonbozlik, Elkada kurash, Bel olish kurashi va boshq.);
- Chavandozlar o'yini (Chavgon, Uloq-ko'pkari, Piyoda poyga, Oltin qoboq, Qizquvish, Eshak mindi va boshq.).

Milliy harakatli o'yinlar sport turlari hamda xalqimiz qadriyatlari bilan aloqador bo'lib, ular asrlar davomida davrlarga mos ravishda rivojlanib, takomillashib, e'zozlanib kelingan. U bolalarning jismonan baquvvat, sog'lom, jasur, qat'iyatli, chaqqon, uddaburon bo'lib o'sishlarida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Xalq milliy o'yinlarida millatning o'tmish tarixi, ma'naviy va madaniy rivojlanishining xarakter xususiyatlari, urfodatlarini, an'analari jamlangandir.

Milliy harakatli o'yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o'yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi.

1-2 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari. «Barmoqqabarmoq», «G'ozg'oz», «G'oz tursin», «Bo'pbo'p», «Toyttoy», «Poyezd», «Achomachom» o'yinlari go'dak endi birikki qadam tashlashni o'rganayotgan vaqtda gavdasini to'g'ri tutishga yordam beradigan o'yinlar hisoblanadi.

3-4 yoshti bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Ot o'yin», «Kesak qo'ydi», «Ko'z boylagich», «Choriy chambar», «Avvalakam», «Tayoq irg'itish», «Quloq cho'zish», «Chitti gul», «Xolam mehmonga keldi», «Uchdiuchdi».

4- 5 yoshli bolalar bilan o'ynaladigan o'yin turlari: «Chir aylanma», «Chillak», «Tortishmachoq», «Lafta», «Dor o'yin», «Ko'pkari», «Berkinmachoq», «Jami», «Chertan devor girgir aylan».

Katta yoshdagi bolalar uchun o'yinlar: «Chavandozlar», «Doiraga tort», «Do'ppi yashirma», «Sapalak», «Besh tosh», «Oq terakmi ko'k terak». Bu o'yinlar orqali bolalarda chaqqonlik, o'z-o'zini boshqara olish va o'ziga ishonch tarbiyalanadi, qat'iyatlilik ko'nikmalari shakllanadi, fikrlashga o'rgatilib boriladi, topqirlik qobiliyatlari rivojlanadi, hozirjavob bo'lishga tayyorlanib boriladi.

Xalq harakatli o'yinlarini tashkil etish va bolalarga o'rgatishda quyidagi qoidalarga rioya qilish zarur:

1. Bolani ruhiy jihatdan o'yinga tayyorlash.
2. O'yin jarayonida bolalarning jismoniy tayyorgarligi va yosh xususiyatlariga e'tibor berish.
3. Har bir o'yinning pedagogik tomonlarini nazardan qochirmaslik.
4. O'yinlarni ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lagan holda hayotga tatbiq etish.
5. O'yin davomida o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlash.
6. Jamoa bo'lib birgalikda harakat qilish, jamoa manfaatiga hurmat va e'tiborli bo'lish.

Quyida bolalar uchun milliy o'yin turlari tavsiya etiladi:

“Oq terakmi, ko'k terak?” o'yini.

O'yindan ko'zlangan maqsad: O'yin tez yugurishni, diqqatni, sezgirlikni, jamoa bo'lib ishlashni rivojlantirishga yordam beradi. O'yin bolalarni ahil bo'lib harakat qilishga, tezda to'g'ri yo'nalishni olishga o'rgatadi. O'yinning o'ziga xos harakati tez yugurish va zanjirni uzish.

O'tkazilish texnologiyasi:

1. Ishtirokchilar bo'yi, kuchi va chaqqonligiga qarab teng 2 jamoaga bo'linadilar (har jamoada 10 tadan 20 tagacha bola qatnashadi).
2. 15-20 m oraliqdagi masofada qo'l ushlab saflanib turadilar.
3. Birinchi jamoa sardori ikkinchi jamoadan birining ismini aytib chaqiradi: Oq terakmi, ko'k terak! Bizdan sizga kim kerak? Sizdan bizga, "falonchi" kerak.
4. O'sha chaqirilgan bola yugurib kelib, raqib jamoa a'zolarining qo'l ushlab turgan erini ko'kragi bilan uzishga urinadi. Agar qo'llar ushlangan joyidan uzilib ketsa, raqib tomondagi bolalardan xohlaganini o'z jamoasiga olib ketadi, uzolmasa, o'zi o'sha jamoada qoladi. O'yin shu tariqa navbat bilan davom etadi. Qaysi jamoada o'yinchilar qolmasa, o'sha jamoa yutqazgan bo'ladi.

"O'rta kirish" o'yini.

O'yindan ko'zlangan maqsad: Ushbu o'yin orqali ishtirokchilarda nishonga olish, tezkorlik, murakkab vaziyatlarda anik mo'ljal olish, chapdastlik, chaqqonlik kabi sifatlar rivojlanadi.

O'yin texnologiyasi:

1. O'yinda uch nafar ishtirokchi qatnashadi. O'g'il va qiz bolalar birgalikda o'ynashlari mumkin.
2. Ikki nafar ishtirokchi un metr ga yaqin oralik masofada bir-biriga bir chiziq bo'ylab yuzma-yuz turadi.
3. Birining qo'lida yumshok, jarohat etkazmaydigan holda ixcham, nishonga tez va aniq uchadigan koptokcha bo'ladi.
4. O'rtada esa bir ishtirokchi ushbu koptokchaga chap berib turishi kerak.
5. Ikki yuzma-yuz bo'lib turgan ishtirokchi o'rtadagi o'yinchini mo'ljalga olib, koptoklarni bir-birlariga otadilar.
6. O'rtadagi o'yinchi esa chaqqonlik bilan to'pga chap berishi, uni o'ziga tekkizmaslikka harakat qilishi zarur.
7. Agar to'pdan qochib qutulolmasa, ya'ni unga to'p tegsa, uni nishonga olgan ishtirokchi bilan o'rin almashadi.

Kes-kes o'yini.

Bu o'yinda to'rt qadam kattalikdagi doira chiziladi. Doira markazida onaboshi turadi. Doira chetida esa barcha o'yinchilar turadilar. Ular doiradan kesib o'tib doiraning narigi chetiga chiqishga harakat kiladilar. Onaboshi esa yugurib o'yinchilarga qo'l tekkizadi. Qo'l tekkan o'yinchi o'yindan chiqadi. Doirani ko'p kesib o'tgan va qo'l tekkizmagan o'yinchi g'olib chiqadi. Bu o'yin bolalardan chaqqonlikni, tez yugurishni, doirani kesib o'tishni talab etadi va o'ziga ishonchni tarbiyalaydi.

Bolalarda o'yinlar orqali ijtimoiy faollikni oshirishda ularning o'ynayotgan o'yinchoqlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Bu borada birinchi prezidentimiz jonkuyarlik bilan shunday degan edi: " ... har qaysi go'dak ilk bor olamni o'z atrofidagi ashyo va buyumlar, jumladan, o'yinchoqlar orqali anglashini inobatga oladigan bo'lsak, ularning inson tarbiyasidagi o'rni

beqiyos ekani ayon bo'ladi. O'yinchoqlar obrazi bolaning murg'ak tasavvuriga bamisoli toshga o'yilgan naqshdek muhrlanib, uning ongida bir umr saqlanib qoladi. Go'dakning ulg'ayib, kasb tanlashi, kelajakda qanday yo'ldan borishi, o'zining hayot tarzini qanday axloqiy-ma'naviy asoslarga qurishi ham, hech shubhasiz, uning bolalikda qanday o'yinchoqlar bilan oshno bo'lib o'sgani bilan belgilanadi."42 Bu fikr bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan o'yinchoqlarni ham tanlashga e'tiborni qaratishimiz lozimligini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. - Т. "Маънавият", 2008. - Б. 43.
2. Isaqova N. The role of uzbek national folk games in spiritual and moral education. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJQT> e-ISSN: 2615-8140|p-ISSN: 2615-7071 Volume: 03 Issue: 6 |Jun 2021. -P. 15.
3. Yo'ldoshev S. Xalq o'yinlari - ma'naviy tafakkur omili / Ijtimoiy-gumanitar fanlar jurnali, 2018/3. 58-b.
4. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – Т. 1. – №. 8. – С. 16-20.
5. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 139-141.
6. Sobirjonovich S. I. malaka oshirish tizimida o'qituvchining axborot-kommunikatsiya kompetentsiyasini rivojlantirish / / IJTIMOY FANLARDA innovatsion ONLAYN ILMIY jurnal. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 30-38.

**INNOVATIVE
ACADEMY**